



XALQ DEPUTATLARI OQDARYO TUMANI KENGASHINING QARORI

2022 - yil 17 - fevral

VI-54-33-7-92-K/22

Oqdaryo tumani hokimligi

Tuman hokimligi xodimlariga oylik ustama ish haqi to‘lash to‘g‘risida

Tuman hokimligi xodimlariga yuklatilgan vazifa va funksional yuklamalar hajmi yuqoriligini inobatga olgan holda ularning samarali faoliyati uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, ularning mehnatini moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Budget kodeksining 28 va 78-moddalari, Mehnat kodeksining 153-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-iyundagi “Mahalliy davlat hokimiyati organlarining budget vakolatlarini kengaytirish va mahalliy budget daromadlarini shakllantirishdagi mas’uliyatini oshirish to‘g‘risida”gi PQ-3042-son qarori, O‘zbekiston Respublikasining “2022-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-742-sonli “2022-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonunining 13-moddasiga asoslanib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 24-moddasiga asosan, xalq deputatlari tuman Kengashining 54-sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Tuman mahalliy budjetining 2022-yil 1-yanvar holatiga saqlangan erkin qoldiq mablag‘i hisobidan Oqdaryo tumani hokimligi boshqaruv apparati va ayrim toifadagi xodimlari (texnik va xizmat ko‘rsatuvchi), xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati xodimlari hamda tuman Moliya bo‘limining ayrim xodimlarining oylik maoshlariga ustama belgilash haqidagi tuman hokimligi Tashkiliy-kadrlar guruhi rahbari I.Narzullayevning bildirish xati ma‘lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimligi boshqaruv apparati va ayrim toifadagi xodimlari (texnik va xizmat ko‘rsatuvchi), xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati xodimlari hamda tuman Moliya bo‘limining ayrim xodimlariga qo‘shimcha

ustama qilib to‘lab berish uchun 85 454,000 (sakson besh million to‘rt yuz ellik to‘rt ming) so‘m mablag‘ tuman hokimligiga ajratilsin.

3. Tuman hokimligi boshqaruv apparati va tuman hokimligining ayrim toifadagi xodimlari (texnik va xizmat ko‘rsatuvchi), xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati xodimlari maoshlariga lavozim maoshining 100 foiziga (haydovchilarga 120 foizga) qadar miqdorda, hamda tuman Moliya bo‘limining ayrim xodimlarining maoshlariga lavozim maoshining 100 foiziga qadar miqdorda ustama belgilansin.

4. Ustama belgilanadigan tuman hokimligi boshqaruv apparati va ayrim toifadagi xodimlari (texnik va xizmat ko‘rsatuvchi), xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati xodimlari hamda tuman Moliya bo‘limining ayrim xodimlarini ro‘yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Oqdaryo tuman hokimligi moliya bo‘limi (U.Maxmanazarov)ga budjetga tegishli o‘zgartirish kiritish, tuman G‘aznachilik bo‘linmasi (X.Abloqulov)ga belgilangan tartibda to‘lovlarni amalga oshirish, tuman hokimligi bosh hisobchisi (M.Tursunov)ga ajratilgan mablag‘lardan maqsadli foydalanish vazifasi topshirilsin.

6. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilishni o‘z zimnamda qoldiraman.

Kengash raisi



Qudratov S. A.

Халқ депутатлари Оқдарё туман
Кенгашининг
2022 йил 17 февралдаги
VI-54-33-7-92-К/22-сон қарорига
1-илова

Tuman hokimlik tasarrufidagi xodimlarning ish haqlariga qo'shimcha ustama

№	Lavozimi	Tulov %	so'mma
Tuman hokimligi apparat hodimlari			
1	Tuman hokimligi Axborot xizmati rahbari	200%	3 980 000
2	Tuman hokimligi Tashkiliy-nazorat guruhi rahbari	200%	3 530 000
3	Oqdaryo tuman hokimi yordamchisi	100%	1 655 000
4	Oqdaryo tuman hokimligi umumiy bo'lim mudiri	200%	3 530 000
5	Oqdaryo tuman hokimligi bosh mutaxassisi	100%	1 547 000
6	Tuman hokimligi bosh mutaxassis	100%	1 547 000
7	Oqdaryo tuman hokimi maslahatchisi	100%	1 990 000
8	Tuman hokimligi qurilish bo'limi bosh mutaxassisi	100%	1 547 000
9	Tuman hokimligi qurilish bo'limi yetakchi mutaxassisi	100%	1 442 000
10	Tuman hokimligi ijtimoiy bo'limi bosh mutaxassisi	100%	1 547 000
11	Tuman hokimligi mahallalar buyicha bosh mutaxassisi	100%	1 547 000
12	Oqdaryo tuman hokimligi umumiy bo'lim mutaxassisi	100%	1 442 000
13	Bosh huquqshunos	200%	2 678 000
14	Bolalarni himoya qilish bo'yicha shuba mudiri	100%	1 765 000
15	Tuman hokimligi bosh mutaxassisi	100%	1 547 000
16	Oqdaryo tuman hokimligi bosh hisobchisi	100%	1 547 000
17	Oqdaryo tuman hokimligi hisobchisi	100%	1 442 000
18	Tashkiliy-nazorat guruhi yetakchi mutaxassisi	100%	1 442 000
19	Bolalarni himoya qilish bo'yicha shuba bosh mutaxassisi	100%	1 547 000
20	Tuman hokimligi yetakchi mutaxassisi	100%	1 442 000
21	Tashkiliy-nazorat guruhi 1 toifali mutaxassisi	100%	1 339 000
22	1 Toyifali mutaxassis	100%	1 339 000
23	Oqdaryo tuman hokimligi ijro nazorati bo'yicha bosh mutaxassis	100%	1 547 000
Xalq deputatlari tuman Kengashi deputati			
24	Kotibiyat mudiri	100%	1 765 000
25	Bosh mutaxassis	100%	1 547 000
26	Bosh mutaxassis	100%	1 547 000
Tuman hokimligi texnik va xizmat ko'rsatuvchi hodimlari			
27	Tuman hokimligi ish yurituvchisi (hisobchi)	100%	950 000
28	Tuman hokimligi umumiy bo'lim ish yurituvchisi	100%	950 000
29	Tuman hokimligi xo'jalik ishlari mudiri	100%	1 237 000
30	Tuman hokimligi qorovuli	100%	822 000
31	Tuman hokimligi qorovuli	100%	822 000
32	Tuman hokimligi farroshi	100%	822 000
33	Tuman hokimligi farroshi	100%	822 000
Tuman hokimligi yengil avtomashina haydovchilari			
34	Tuman hokimligi yengil avtomashina haydovchisi	120%	980 000
35	Tuman hokimligi yengil avtomashina haydovchisi	120%	980 000
36	Tuman hokimligi yengil avtomashina haydovchisi	120%	980 000
37	Tuman hokimligi yengil avtomashina haydovchisi	120%	980 000
38	Tuman hokimligi yengil avtomashina haydovchisi	120%	980 000
39	Tuman hokimligi yengil avtomashina haydovchisi	120%	980 000
40	Tuman hokimligi yengil avtomashina haydovchisi	120%	980 000
Tuman Moliya bo'limi xodimlari			
41	Tuman moliya bo'limi mudiri	100%	1 765 000

42	Tuman moliya bo'limi o'rinbosari	100%	1 677 000
43	Tuman moliya bo'limi o'rinbosari	100%	1 677 000
44	Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish shubasi mutaxasis	100%	1 339 000
45	Tuman moliya yengil avtomashina haydovchisi	100%	822 000
	Jami:		68 363 000
	Ijtimoiy tulov 25%		17 090 750
	Xammasi		85 454 000